



UDK: 811.12

Feruz RAJABOV,

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti akademik litseyi katta o'qituvchisi, f.f.f.d (PhD)

E-mail: azamat.erolov.95@mail.ru

QarDU f.f.d., prof. X.Jabborov taqrizi asosida

OMONIMLARNI VUJUDGA KELTIRUVCHI OMILLAR

Annotatsiya

Maqolada omonimlarni vujudga keltiruvchi omillarning sohaga tegishli ilmiy manbalarga tayangan holda dalil va tahlili keltirilgan. Omonimlarni vujudga keltiruvchi omillarga ko'ra qanday tasnif qilish haqida tavsiya berilgan.

Kalit so'zlar: Omonimiya, ko'p ma'noli, leksik yo'l, substantivatsiya (otlashish), adekvatsiya (sifatlashish) va adverbializatsiya.

ФАКТОРЫ, ПОРОЖДАЮЩИЕ ОМОНИМЫ

Аннотация

В статье представлены данные и анализ факторов, образующих омонимы, на основе научных источников, относящихся к данной области. Даны рекомендации, как классифицировать омонимы по факторам, их создающим.

Ключевые слова: Омонимия, полисемия, лексический путь, субстантивация, прилагательное и адвербиализация.

FACTORS CAUSING OMONYMS

Annotation

The article presents evidence and analysis of the factors that create homonyms based on scientific sources related to the field. A recommendation is given on how to classify homonyms according to the factors that create them.

Key words: Homonymy, polysemy, lexical path, substantivation, adjectivation, and adverbialization.

Kirish. Tilda shakli bir xil, ma'nosi har xil bo'lgan omonim so'zlar ko'proq badiiy uslubda modal, uslubiy ma'nolarni anglatishda vosita bo'ladi, ular ishtirokida so'z o'yinlari, tuyuqlar yaratiladi. Bu omonimik birliklarning tilda namoyon bo'lishi tilshunoslik manbalarida turlicha talqin qilingan. Biz ushbu maqolda bu xususida fikr yuritamiz.

O'zbek tilshunosligida A.Abduazizov: "Omonimlarning kelib chiqishi so'zlarning ko'p ma'noli xususiyatlarining kamayishi bilan ham aniqlash mumkin"[1], deyilgan. Bu haqida Y.Berdimuratov: "Tildagi faktarga e'tibor bersak, omonimlar, umuman olganda, turli so'z turkumlarining ichida ko'rinadiganligini payqaymiz"[2], deb ta'kidlangan.

2. Adabiyotlar tahlili:

G'.Abdurahmonov "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida keltirishicha, omonimlar quyidagi yo'llar bilan vujudga keladi: 1. Ba'zi ko'p ma'noli so'zlarning ma'nolari orasidagi yaqinlik, bog'lanish uzoqlashuvi va o'zgaruvi natijasida. Masalan, kun so'zi, birinchidan, quyosh, oftob ma'nosini, ikkinchidan, bir kecha-yu kunduzni (sutkani), uchinchidan, sutkaning ma'lum qismi (kunduzni), to'rtinchidan, tirikchilikni (kun kechirmoq) anglatadi. Ko'ramizki, kun so'zining bu to'rttala ma'nolari bir-biridan tamoman uzoqlashib ketgan. Shuningdek, oy so'zi ham sayyora, vaqt o'lchovi (yilning o'n ikkidan bir bo'lagi), go'zal (oy yuzli, shakar so'zli dilbarim kabi) ma'nolarida ishlatiladi. 2. O'zak yoki negizlardan yangi so'zlar yasaliishi va yasama so'z shakllarining bir xilda bo'lishi natijasida. Masalan, oylik: 1) maosh, ish haqi; 2) o'lchov, muddat (oylik plan ortig'i bilan bajarildi kabi); uloq: 1) echkinning bolasi; 2) bog'langan, tug'ilgan (uloq yoki ulangan arqon); kira — 1) yo'l, safar uchun to'lanadigan pul (poyezd kirasi, arava kirasi); 2) ravishdosh (uyga kira solib kabi). 3) boshqa tillardan so'z va terminlar o'zlashtirilishi va shu xil so'zlarning o'zbek tilidagi boshqa so'zlar bilan shaklan o'xshash bo'lishi natijasida. Bu xil omonimlar arab tilidan, rus tilidan va u orqali boshqa tillardan o'tgan so'zlar orasida ko'proq uchraydi. Misollar: oshiq — 1) ortiq; 2) sevgan (kishi); asr — 1) yuz yil, 2) payt (namoz asr); rasm — 1) surat, 2) odat; safar — 1) yo'l, yo'lga o'tlanish, 2) oy nomi, safar oyi va boshqalar. 4. Ayrim sheva yoki dialektga xos so'zlarning adabiy til leksikasiga o'tib, adabiy tildagi boshqa so'zlar bilan shakldosh bo'lishi natijasida. Chunonchi salla — 1) musulmonlar boshga o'raydigan uzun va ensiz, ko'pincha oq

gazlama, 2) xamirdan qilingan va yog'da pishirilgan o'rama qatlama, yumaloq xamir ovqat (Toshkent dialektida); so'ri — 1) toklarni ko'tarib turadigan, yog'ochdan yoki metaldan qilingan ko'tarma, tirgak (Toshkent dialektida), 2) baland yog'och karavot (Farg'ona shevalarida); shoti — 1) aravaning ustki ikki muvoziy yog'ochi (Toshkent dialektida), 2) yuqoriga (tom, daraxt yoki devorga) ko'tariladigan asbob (narvon) va boshqalar. 5. So'z formalari yoki tovush o'zgarishi tufayli so'z shakllarining o'xshab qolishi natijasida. Chunonchi, eg va ek so'zlariga sifatdosh affiksi -gan qo'shilishi natijasida, har ikkala so'z ham ekkana shakliga kirib omonimlashadi (bu holat lotin yozuvi asosidagi yangi o'zbek alifbosida aks etmaydi).

E.Qilichev omonimlarning olti usul bilan yuzaga kelishini ko'rsatgan: 1. Ma'lum bir tildagi turli so'z turkumlariga tegishli bo'lgan ayrim so'zlarning shaklan bir xilda bo'lishi, bir xil talaffuz qilinishi natijasida: qil-qil, qo'y-qo'y. 2. Ba'zi ko'p ma'noli so'zlarning ma'nolari orasidagi bog'lanishning uzoqlashishi natijasida: kun: kun chiqdi (quyosh) — kun ko'rish (tirikchilik), oy: yangi oy chiqdi (planeta), o'ttiz kun — bir oy (vaqt). 3. Bir tildan ikkinchi tilga so'z olish natijasida: tur (sport), tur (xil). 4. Ayrim sheva so'zlarining adabiy tilga o'tib qolishi natijasida: salla— narsa, gazmol, salla— o'rama (ovqat). 5. Ba'zi so'zlarning o'zak-negizlariga qo'shimchalar qo'shish orqali yangi so'zlar yasaliishi natijasida omonimlar vujudga keladi: oylik — maosh yoki ish reja. 6. Ayrim tovushlar diezezasi natijasida leksik omonimlar vujudga keladi: yiroq so'zidagi "y" tushirilib, iroq—uzoq va shashmaqom turi [Qilichev, 1999].

S.Rahimov, B.Umurqulovlar darsligida omonimlar yuzaga kelishining to'rt xil usuli keltirilgan: 1. Fonetik taraqqiyot natijasida har xil talaffuz qilinuvchi so'zlarning bir xil fonetik qobiqqa ega bo'lishi natijasida (o'r — kesmoq, o'r — qir). 2. Ko'p ma'noli so'zlarning semantik tuzilishida ma'no munosabatining kuchsizlanishi (ko'k "osmon" — ko'k "rang", ko'k "maysa", ko'k "ko'kat", ko'k "motam libosi"). 3. Ma'lum so'z asoslaridan yangi so'z yasaliishi natijasida (oylik "maosh"— ot turkumi, oylik "o'lchov", "muddat" — sifat turkumi). 4. Boshqa tildan o'zlashgan so'zning tildagi so'z bilan talaffuz jihatidan mos kelib qolishi natijasida: to'n (kiyim), ton (ohang), tom (kitob jildi), tom (uy usti) va boshqalar [Rahimov, Umurqulov, 2003:24].

Sh.Rahmatullayev omoleksemalarning yuzaga kelish sabablari sifatida quyidagilarni ko'rsatadi: 1.Qadimgi turkiy

tildagi turkum sinkretizmining yo'qolishi oqibatida yuzaga kelgan: yuq birligi harakat ma'nosini ham (qoldiq sifatida yopish), predmet ma'nosini ham (yopishib qolgan qoldiq) anglatish uchun ishlatilgan. 2. Leksemalarning ifoda jihatida voqe bo'lgan tovush o'zgarishlari oqibatida teng kelib qolishi bilan yuzaga kelgan. Oq I sifat leksemasi asli a:q- ifoda jihatiga, oq II fe'l leksemasi esa aq ifoda jihatiga ega bo'lgan, sifat leksema tarkibidagi a: tovushiga xos cho'ziqlik belgisi yo'qolishi oqibatida bu ikki leksema omoleksemalar holatiga o'tgan va shunday holatda a tovushi a tovushiga almashib hozirgi o'zbek tiliga yetib kelgan. Ifoda jihatining teng kelib qolishi natijasida: o'zbekcha leksemalar, o'zbekcha leksema bilan o'zlashma leksema orasida (o'zbekcha - tojikcha; o'zbekcha - arabcha; tojikcha leksemalar, arabcha leksemalar orasida; arabcha-tojikcha leksema orasida sodir bo'lishi ko'rsatilgan. 3. Omonimiya leksik ma'no taraqqiyoti natijasida voqe bo'ladi: o'rta I (ot) – o'rta II (sifat); kun I yerga issiqlik va nur taratib turuvchi planeta, kun II quyosh chiqqandan botgungacha bo'lgan vaqt. 4. Omoleksemalar leksema yasalishi natijasida ham yuzaga kelgan. Buning asosiy ko'rinishlari: 1. Tub leksema bilan yasama leksema orasida voqe bo'lgan: kuya I (yungli matoga tushadigan zararkunanda hasharot) – kuya II (kuy-kuyib ko'mir bo'l + -a ot yasovchisi: kuyish natijasida hosil bo'ladigan qora zarralar) kabi. 2. Yasama leksemalar orasida voqe bo'ladi. Buning asosiy ko'rinishlari:

1) bir leksemadan yasalishlarda voqe bo'ladi: a) bir affiksning o'zi yordamida yasaladi: boshliq I (bosh- boshlang'ich + liq) – boshliq II (bosh- asosiy + liq).

Yuqoridagi misollarda har bir leksema o'zicha mustaqil yasalgan, natijada omonimiya hosil bo'lgan. Yasama leksemalar orasidagi omonimiya boshqacha taraqqiyot natijasida ham yuzaga keladi. Masalan, ayri I (<ayir- + i sifat yasovchisi) – ayri- II (ot); kecha I (kech- + a ot yasovchisi) – kecha II (ravish); tepki I (tep- + ki) – tepki II (ot) kabilarda ikkinchi leksema birinchi (asli yasama) leksemaning ma'no taraqqiyoti natijasida paydo bo'lgan; b) har xil affiks yordamida yasaladi: tiqin- I (tiq- + in narsa-qurol oti yasovchisi) – tiqin- II (tiq- + in sifat yasovchisi); 2) har xil leksemalardan yasalishlarda voqe bo'ladi: a) bir affiksning o'zi bilan yasaladi: sochiq- I (soch- I - boshdagi tuklar, -iq narsa oti yasovchisi) – sochiq II (soch- II -har tomonga otib tashla, -iq narsa oti yasovchisi). b) har xil affiks bilan yasaladi: kechik I (kech- fe'l, -ik ot yasovchisi) – kechik; II (kech- payt ravishi, -ik fe'l yasovchisi).

5. Alohida hodisa sifatida ideal I – ideal II kabi omoleksemalarni ko'rsatish lozim. Bular ruscha sifatni o'ziga xos usul bilan olish natijasida voqe bo'ldi: general (ot) – general (sifat: general plan).

3. Tadqiqot metodologiyasi:

Sh.Shoabdurahmonov hammualliflikda yozgan Hozirgi o'zbek adabiy tili darsligida omonimlarni vujudga keltiruvchi hodisalar turlicha bo'lib, ularning asosiy qiyodagilardir:

1. O'z qatlamga mansub bo'lgan ba'zi so'zlar tarixan fonetik tuzilishi har xil bo'lsa ham talaffuzda shakldoshlik kasb etishi asosida omonimlarga aylanadi: ot (ism) - ot (hayvon) - ot (harakat); o't (o't-o'lan) - o't (olov) - o't (harakat) kabi omonim so'zlardagi o va o' unilari tarixan o'zining til oldi va til orqa shakllariga (allafonlariga) ega bo'lgan. Biroq hozirgi adabiy tilda ular farqlanmaydi.

2. Ko'p ma'noli so'zlar o'rtasidagi ma'no bog'lanishning uzilishi, zaiflashishi asosida ham omonimlar shakllanadi. Masalan, ko'k so'zi, dastlab, ko'k rang (sifat) tushunchasiga ega bo'lgan. Keyinchalik bu so'z metafora (o'xshashlik) asosida osmon tushunchasiga nisbatan ham ishlatila boshlagan.

3. Umumturkiy yoki asl o'zbekcha so'zlar o'zga tillardan so'z o'zlashtirish asosida ham shakldoshlikka ega bo'lib qolishi mumkin. Masalan, bog' (mevazor) va bog' (bog'langan narsa, beda bog'i); tok (uzum novdasi) va tok (elektor toki), tom (uy tomi) va tom (kitob jildi) so'zlari o'zbekcha-tojikcha hamda o'zbekcha rus va yevropa tillaridan o'zlashgan so'zlarning o'xshash fonetik qiyofasi asosida yuzaga kelgan omonim so'zlardir.

4. Ma'lum bir so'zning o'zak-negizidan qo'shimchalar orqali yangi so'zlar yasalishi natijasida shakldosh so'zlar hosil bo'ladi. Masalan: oylik olmoq, oylik reja birikmalaridagi oylik

so'ziga qo'shilgan -lik qo'shimchasi asosida shakldosh so'z hosil bo'lgan bo'lishi ham mumkin[3].

Sh.Rahmatullayev "O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati"da leksik omonimlar lug'at boyligi taraqqiyotining quyidagi hodisalari natijasida vujudga kelishi asoslangan:

1. O'zbek tilining boshqa tillar bilan munosabati natijasida. Masalan, sir, alam, banka, bog'.

2. O'zbek adabiy tiliga dialektal so'zlarning kirib kelishi natijasida. Masalan, bo'lishmoq, shoti, chavoq.

3. So'zlarning leksik taraqqiy etishi natijasida. Masalan, ort, g'arch, ko'k.

4. So'zlarning semantik taraqqiy etishi natijasida. Masalan, banoras, teri, yaramoq, qiziq, is.

5. So'zlar fonetik o'zgarish orqali o'zaro ham talaffuz, ham yozilish jihatidan bir xil bo'lib qolishi natijasida. Masalan, o't, o'ch, chag'ir, bog', oz, yor[4].

4. Tahlil va natijalar.

Ba'zi tilshunoslik manbalarida leksik omonimiya hodisasini keltirib chiqaruvchi sabablar sifatida quyidagilar ko'rsatilgan:

1. Ko'p ma'noli so'zning ayrim ma'nolari o'rtasidagi aloqadorlik yo'qolib, ular shakldosh so'zlarga aylanib qolishi mumkin. Masalan: dam, tepki, suzmoq kabi.

2. Boshqa tillardan kirgan so'zlar o'zbek tilidagi so'zga o'xshash bo'lib qolishi kuzatiladi. Masalan: bog' (o'zbekcha: tugilgan narsa, to'plash) – bog' (tojikcha: mevali daraxtlar o'sgan joy), chor (tojikcha -o'zbekcha: to'rt) – chor (tsar) Rossiyasi kabi.

3. Substantivatsiya (otlashish), adyektivatsiya (sifatlashish) va adverbializatsiya (ravishlashish) hodisalari, ya'ni konversiya yordamida ham omonimlar hosil qilinadi. Masalan: Chaqmoq, quymoq, yigirma, qirq; shayton, tulki, qo'y, erta, kech kabi.

4. Ma'lum bir tilda, masalan, o'zbek tilida turli so'z turkumlariga tegishli bo'lgan ayrim so'zlarning shaklan bir xilda bo'lishi, bir xil talaffuz qilinishi natijasida omonimlar vujudga keladi. Chunonchi, qil so'zini olaylik: bu so'z ot turkumiga kirib, otning qili ma'nosini bildiradi; fe'l turkumiga kirib ado et, bajar ma'nolarini anglatadi. Yana:

Besh bosh qo'y (ot).

Daftarni stolga qo'y (fe'l).

5. Ba'zi so'zlarning ma'no xususiyatlari orasidagi o'zaro munosabatning borgan sari uzoqlashishi natijasida omonimlar yuzaga keladi:

Kun chiqdi, ish boshlaymiz.

Kun ko'rish oson bo'ldi.

Yangi oy chiqdi.

O'ttiz kun bir oy.

6. Ma'lum so'zning o'zak-negizidan qo'shimchalar orqali yangi so'zlar yasalishi natijasida omonimlar hosil bo'ladi.

Oylik — Kundalik

— Oylik (maosh) oldim.

— Oylik plan bajarildi.

— Senda kundalik (daftari) bormi?

— Kundalik ish normasi belgilab berildi.

7. Bir tilga ikkinchi bir tildan so'z olinishi natijasida omonimlar paydo bo'ladi. Masalan, o'zbek tiliga rus tilidan may (oy nomlaridan biri: 10-may), tur (sport termini: ikkinchi tur boshlandi) kabi so'zlarning kirib kelishi bilan tilimizda mavjud may (vino), tur (xil) so'zlari natijasida.

Umuman olganda, o'zbek tilshunosligi manbalarida yuqoridagi kabi asosan omonim so'z va so'zshakllarning paydo bo'lish sabablari ko'rsatilgan. Manbalarda keltirilgan bu dalillar va kuzatishlarimiz shuni ko'rsatdiki, tilda nafaqat omonim so'z va so'zshakllari boshqa omonimik birliklarning kelib chiqishi bir qancha omillarga bog'liq. Bu omillar asosan quyidagilardir:

1. Xalq ijtimoiy hayotida ro'y bergan o'zgarishlar.

2. So'zning yangi ma'nosining kelib chiqishi.

3. Ko'p ma'noli so'zlardan yangi leksik birliklarning paydo bo'lishi.

4. Fonetik o'xshashliklar.

5. Olinma so'zlar.

6. Asl va olinma so'zlarning fonetik tarkibi tasodifiy o'xshashligi.

7. Chetdan so'z kirish yo'lining ortishi.

8. Leksik ma'no orqali grammatik ma'noning kelib chiqishi.

9. Alohida fan-texnika rivojlanishi natijasida mavhum tushunchalarni kirib kelishi va boshqalar.

5. Xulosalar.

Yuqoridagi omillardan xulosa qilsak, omonimlarni kelib chiqishini uch guruhga bo'lish mumkin:

1. Leksik yo'l bilan hosil bo'lgan omonimlar.

2. Morfologik yo'l bilan yaratilgan omonimlar.

3. Sintaktik yo'l bilan yuzaga kelgan omonimlar.

ADABIYOTLAR

1. Abduazizov A. O'zbek tili morfologiyasi va fonetikasi, Toshkent, "Fan", 1992.
2. Abdurahmonov G'. Hozirgi o'zbek adabiy tili I qism, - Toshkent, 1966. – B.118-127
3. Berdimuratov Y. Hozirgi qaraqalpaq tili. Leksikologiya. Nökis, 1994, 38-bet.
4. Rahmatullayev Sh. O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati. –Toshkent: O'qituvchi. 1984.–B.45
5. Shoabdurahmonov Sh va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent: O'qituvchi, 1980. –B.110-118